



## **XALQ DEPUTATLARI QUMQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI**

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511

2022 - yil 7 - dekabr

VI-56-159-8-114-K/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

### **Tumandagi ayrim qabriston, mahalla va ko'chalarni nomlash hamda qayta nomlash to'g'risida**

“Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta'minlash hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. Geografik obyektlarga nom berish to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 08-08791-son yig'ilish bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Tumanda nom berilayotgan va qayta nomlanayotgan ko'chalar, qabriston hamda mahallalar ro'yxatini 1, 2, 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman statistika bo'limi (Sh.Allayarov), tuman qurilish bo'limi (E.Karamatov), Davlat kadastrlar palatasi Qumqo'rg'on tuman filiali (A.Tojiyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlangan ko'chalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Tuman ichki ishlari bo'limi (O.Jiyanov) nomlari o'zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallalar va ko'chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan belgilariiga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (E.Karamatov) va Davlat kadastrlar palatasi Qumqo‘rg‘on tuman filiali (A.Tojiyev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatalishini ta’minlasin.

5. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi(Sh.Qurbanov) nomlari o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan qabristonning peshlavhasini va guvohnoma hamda muhr (pechat) larni o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

6 Tuman Mahallabay ishslash markazi rahbari (A.Djumayeb)nomlari o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallalrning peshlavhasini va guvohnoma hamda muhr (pechat) larni o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

7. Mazkur qaror “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Allayarova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) zimmalariga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**A.Normamatov**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on  
tuman Kengashining  
2022 yil 7 dekabrdagi  
VI-56-159-8-114-K/22-son  
qaroriga  
1-ilova

**Qumqo‘rg‘on tumanidagi ayrim nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risidagi takliflar**

Nº	T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Respublika ekspertiza xulosasi va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
<b>Qumqo‘rg‘ontumanibo‘yicha</b>					
1.	1.	Ko‘cha	Jaloyir MFY	nomsiz	Yangimakon
2.	2.	Ko‘cha	Yangiyer MFY	nomsiz	Ko‘hnabog‘
3.	3.	Ko‘cha	Yangiyer MFY	nomsiz	Yorqin
4.	4.	Ko‘cha	Yangiyer MFY	nomsiz	Dilsaroy
5.	5.	Ko‘cha	Yangiyer MFY	nomsiz	Manzilobod
6.	6.	Ko‘cha	Yangiyer MFY	nomsiz	Havaskor
7.	7.	Ko‘cha	Elobod MFY	nomsiz	Nurlizamin
8.	8.	Ko‘cha	Navbahor MFY	nomsiz	Iste’dod
9.	9.	Ko‘cha	Navbahor MFY	nomsiz	Jayhun
10.	10.	Ko‘cha	Bog‘aro MFY	nomsiz	Bog‘iston
11.	11.	Ko‘cha	Bog‘aro MFY	nomsiz	Betakror
12.	12.	Ko‘cha	Bog‘aro MFY	nomsiz	Afsona
13.	13.	Ko‘cha	Bog‘aro MFY	nomsiz	Sobitqadam
14.	14.	Ko‘cha	Bog‘aro MFY	nomsiz	Yoshkuch
15.	15.	Ko‘cha	Azlarsoy MFY	nomsiz	Ziroatchilar
16.	16.	Ko‘cha	Azlarsoy MFY	nomsiz	Ulug‘vor
17.	17.	Ko‘cha	Bo‘ston MFY	nomsiz	Obodmaskan
18.	18.	Ko‘cha	Bobotog‘ MFY	nomsiz	Muhtasham
19.	19.	Ko‘cha	Ko‘ganli MFY	nomsiz	Tabassum
20.	20.	Ko‘cha	Ko‘ganli MFY	nomsiz	Nashida
21.	21.	Ko‘cha	Kattako‘l MFY	nomsiz	Qo‘rg‘ontepa
22.	22.	Ko‘cha	Kattako‘l MFY	nomsiz	Ozodyurt
23.	23.	Ko‘cha	Oqtom MFY	nomsiz	Yagona
24.	24.	Ko‘cha	Cho‘kirliMFY	nomsiz	Kitobxonlar
25.	25.	Ko‘cha	Mehrabod MFY	nomsiz	Diydor

<b>№</b>	<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning turi</b>	<b>Joylashgan o‘rni</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Respublika ekspertiza xulosasi va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif</b>
26.	26.	Ko‘cha	Gultepa MFY	nomsiz	Umidbaxsh
27.	27.	Ko‘cha	Munchoqtepa MFY	nomsiz	Shon-sharaf
28.	28.	Ko‘cha	Munchoqtepa MFY	nomsiz	Bahouddin Naqshband
29.	29.	Ko‘cha	Uyas MFY	nomsiz	Maroqand
30.	30.	Ko‘cha	Nurlidiyor MFY	nomsiz	Yangiqo‘rg‘on
31.	31.	Ko‘cha	Umidnihollari MFY	nomsiz	Me’mor
32.	32.	Ko‘cha	Chayontepa (yangi nomi Yuksalish) MFY	nomsiz	Hurlik
33.	33.	Ko‘cha	Ulug‘bek MFY	nomsiz	Zahriddin Muhammad Bobur

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on  
tuman Kengashining  
2022 yil 7 dekabrdagi  
VI-56-159-8-114-K/22-son  
qaroriga  
2-ilova

**Qumqo‘rg‘on tumanidagi Chayontepa mahallasi nomini o‘zgartirish va davlat reyestriga imlo xato  
bilan kirgizilgan Tayfang nomlarini to‘g‘rilash**

Nº	T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Respublika ekspertiza xulosasi va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
34.	1	Mahalla	Chayontepa MFY	Chayontepa	1.Yuksalish 2.Nurafshon 3.Oriyat	<b>Yuksalish</b>
35.	2	Mahalla	Toyfang MFY	Toyfang	Tayfang	<b>Tayfang</b>

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on  
tuman Kengashining  
2022 yil 7 dekabrdagi  
VI-56-159-8-114-K/22-son  
qaroriga  
3-ilova

**Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Yangi hayot” mahallasidagi qabristonni nomlash**

<b>№</b>	<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning turi</b>	<b>Joylashgan o‘rni</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Respublika ekspertiza xulosasi va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif</b>
36.	1	Qabriston	Yangi hayot	Nomsiz (norasmiy nomi Yangi hayot )	Mullo Abdug‘affor hoji